

## Xuan Goytisolo Gay Ijodining Taraqqiyoti Va Ispan Adabiyotidagi O'Rni

*Utkir Burxonov<sup>1</sup>, Karlos Martin-Penasko Medina<sup>2</sup>*

**Anatatsiya:** Ushbu maqola XX asrning eng yorqin ispan yozuvchilaridan biri bo'lgan Xuan Goytisolo Gayning ijodiy yo'lini tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda yozuvchining hayotidagi muhim bosqichlar, u yashagan tarixiy-madaniy sharoitlar, asarlarining mavzu doirasi va badiiy-estetik xususiyatlari yoritilgan. Goytisolo ijodi uch asosiy bosqichda o'rganiladi: dastlabki realizmga yaqin asarlar, tanqidiy-lirik yo'nalishdagi romanlar va eksperimental-postmodernistik davr ijodi. Shuningdek, maqolada Goytisolo ijodining ispan adabiyoti va jahon adabiy muhitidagi ahamiyati, tarjima qilinishi va xalqaro e'tibori ham tahlil qilinadi. Uning madaniyat, din va identitet mavzulariga bergen tanqidiy munosabati maqolaning asosiy markazida turadi.

**Kalit so'zlar:** Xuan Goytisolo, ispan adabiyoti, tanqidiy realizm, postmodernizm, madaniyat, identitet.

XX asr Ispan adabiyoti katta ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, fuqarolar urushi (1936–1939), Franko diktaturasi (1939–1975) va demokratik o'zgarishlar ta'sirida shakllangan. Bu davrda adabiyot siyosiy qarashlar, shaxsiy iztiroblar va modernistik izlanishlar bilan boyidi. Asr boshlarida "98 yili avlodi" (Generación del 98) deb nomlangan adabiy oqim (Miguel de Unamuno, Pio Baroja, Antonio Machado) Ispaniyaning tanazzulini falsafiy va ijtimoiy jihatdan tahlil qildi. Keyinchalik, "27-yil avlodi" (Generación del 27) vakillari (Federico García Lorca, Rafael Alberti,) she'riyat va modernizmni uyg'unlashtirdi. Fuqarolar urushidan keyingi davrda ko'plab yozuvchilar surgunga ketdi (Juan Ramón Jiménez, Max Aub), ba'zilar esa Franko senzurasiga qaram bo'lishga majbur bo'ldi. 1950–70-yillarda realistik romanlar (Camilo José Cela, Carmen Martín Gaite) va tanqidiy adabiyot rivojlandi.

1975 yildan keyingi demokratik davrda Ispan adabiyotida postmodernizm, o'zlik izlanishlari va eksperimental shakllarning rivojlanishi kuzatildi. Juan Goytisolo, Javier Marías va Rosa Montero kabi adiblar bu jarayonning yetakchi vakillaridan bo'lib, yangi adabiy yondashuvlar orqali o'z davrining murakkab ijtimoiy va madaniy masalalarini yoritishga harakat qildilar. Umuman olganda, XX asr Ispan adabiyoti o'zining murakkab tarixiy konteksti, uslubiy xilma-xilligi va chuqr g'oyaviy izlanishlari bilan jahon adabiy merosiga salmoqli hissa qo'shdi.

Mazkur davrning yirik vakillaridan biri — yozuvchi Xuan Goytisolo Gay 1931 yil 5 yanvarda Barselona shahrida dunyoga kelgan. Bolaligi qiyinchilikda va nochorlikda o'tgan. Yetti yoshligida onasining bevaqt o'limi unga og'ir ruhiy zarba bergen bo'lsa, Ispaniyada davom etayotgan siyosiy beqarorlik va Fransisko Franko boshchiligidagi harbiy aviatsiyaning Barselonadagi bombardimon harakati uni mamlakatni tark etishga majbur qildi. Goytisolo keyinchalik Marokash va Parijda istiqomat qildi hamda o'z ijodida aynan shu tarixiy va shaxsiy kechinmalarni chuqr aks ettirdi.

1956 yilda u Parijga kelib yashay boshlagach, mashhur frantsuz noshiri Gaston Gallimarning (1881–1975) "Gallimard" nomli nashriyotida adabiy maslahatchi sifatida faoliyat yurita boshlaydi. Bu

<sup>1</sup> Samarqand chet tillari instituti, Ispan va italyan filologiyasi kafedrasи, Dotsent, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

utkirburkhon24@gmail.com

<sup>2</sup> Ispaniyadagi Kadis universiteti, Gumanitar fanlar va san'at yo'nalishida falsafa doktori (PhD)

carlospenasco@gmail.com



nashriyot Yevropa adabiy muhitida katta nufuzga ega bo'lib, Goytisolo u yerda nafaqat tarjimon va muharrir sifatida, balki mustaqil yozuvchi sifatida ham o'zining adabiy mavqeini mustahkamlaydi.

1969–1975 yillar oralig'ida u AQShning Kaliforniya, Boston va Nyu-York universitetlarida ispan adabiyoti bo'yicha dars beradi. Bu davrda u ilmiy va badiiy izlanishlarini yanada chuqurlashtirib, o'zining muhim asarlaridan biri — "Vida de Estebanillo González, hombre de buen humor" ("Estebanillo Gonsales hayoti, yaxshi kayfiyatli odam") romanini nashr ettiradi. Ushbu asar XVII asrning mashhur picaresca (daydi hayot haqida) romaniga zamонави yondashuv asosida yozilgan bo'lib, Goytisolo unda xalq tilidagi obrazlar, ijtimoiy satira va o'ziga xos parodiya vositalari orqali Ispaniyaning tarixiy-siyosiy muammolarini oshib beradi. Asar ispan jamiyatining ikkiyuzlamachilik, korrupsiya va ijtimoiy norovonliklaridan tanqidiy kulgi vositasida foydalanadi.

Goytisolo o'z faoliyati davomida yaratgan ayrim asarlarini 1963 yilgacha Ispaniyada chop ettira olmaydi, chunki ularning mazmuni Fransisko Franko tuzumiga qarshi deb baholangan. Ayniqsa, din, siyosat va ijtimoiy tengsizlikni tanqid qiluvchi asarlar tsenzura sababli taqiqlangan edi.

1980-yillarda yozuvchi o'z avtobiografik va esse janridagi asarlari bilan yana keng e'tiborga tushadi. Jumladan, "Coto vedado" (1985) ("Taqiqlangan qo'riqxona") nomli asari Goytisoloning hayoti, bolalik yillari, shaxsiy iztiroblari va ijodiy shakllanishi haqida samimiy va ochiq qalam bilan yozilgan avtobiografik asardir. U bu kitobda o'zining jinsiy orientatsiyasi, jamiyatda o'z o'mini topish jarayoni va tsenzura bilan kechgan kurashini bayon etadi. Asar ispan adabiyotida "avtobiografik o'zlikni tan olish" deb ataluvchi uslubda yozilgan muhim namunalardan biridir.

Keyingi yili, 1986 yilda, u "En los reinos de Taifas" ("Razillar quolligida") nomli asarini nashr ettiradi. Bu kitob Ispaniya tarixidagi "taifalar davri" (ya'ni, arablar hukmronligi davrida vujudga kelgan mustaqil hududiy davlatlar) obrazidan ramziy vosita sifatida foydalangan holda zamонави Ispaniyadagi bo'linish, intellektual jamiyatdagi ziddiyatlar va yozuvchi jamiyatdagi roli haqida teran falsafiy mulohazalarni o'z ichiga oladi. Asarda madaniy, ijtimoiy va siyosiy "taifachilik" tanqid qilinadi.

Uning yana bir muhim asari – "Memorias" ("Me'muarlar") — Goytisolo ijodining umumlashmasi bo'lib, unda u o'z hayoti davomida uchragan tarixiy voqealar, madaniy izlanishlar, o'zlikni anglash yo'li va yozuvchi sifatidagi pozitsiyasini yodnomaliga janrida bayon etadi. Bu asar nafaqat shaxsiy hayot aks ettirilgan kitob, balki butun XX asr Ispaniyasi, Yevropa va musulmon Sharqini birgalikda talqin qiluvchi madaniyatlararo ko'prikdir.

Ushbu asarlar orqali Goytisolo nafaqat o'z adabiy mavqeini tiklaydi, balki Ispan va jahon adabiy makonida mustahkam o'rinni egallaydi. Aynan shu yillarda u Gallimard nashriyotidagi obro'sini ham qayta tiklaydi va uning asarlari ko'plab tillarga tarjima qilina boshlaydi.

Uning ijodi asosan romanlar, hikoyalar va sayohat xotiralari, she'rlar hamda esselardan iborat. Munakkidlar uning ijodini uch yo'nalishga bo'lishadi:

**Birinchi yo'nalishga** uning "Qo'l epchilligi" ("Juegos de manos") (1954) va "Jannatdagi duel" ("Duelo en el paraíso") romanlari kiradi. Unda realik she'riy izohlanish bilan baholanadi va birinchi o'rinda bolalar va o'smirlar mifologiyasiga e'tibor qaratiladi.

**Ikkinci yo'nalishda** oldingilariga qaraganda lirizm va mavhumlik oshiriladi hamda haqiqatga tanqidiy yondashiladi. Bu yo'nalishda realikni inkor etuvchi, idealistik oqim qarashlarini o'z ichiga olgan "Sirk" ("El Circo") va "Nixar Kamposi" ("Campos de Níjar") kabi asarlar o'rinni olgan.

**Uchinchi yo'nalishda**, nihoyat, Goytisolo, 70-yillardagi ispan romanchiligidagi an'anaviy va eksperimental hikoyanavistlikni sindiradi. U "Tenglik belgisi" ("Señas de identidad") (1966), "Graf Xulianing talabi" ("Reivindicación del conde don Julián") (1970) va shu kabi asarlar orqali Ispaniyaning global tanqidiy izlanishlarini (madaniyat, din va boshqalar) qo'zg'atib yuboradi.

Goytisolo asarlari dunyo ahlining katta qiziqishiga sazovor bo'ldi va shu sababli uning ko'plab asarlari turli tillarga tarjima qilingan. Jumladan, u yaratgan badiiy va esse janridagi asarlar ispan, frantsuz, nemis, ingliz tillari hamda yana dunyoning o'n uch tiliga tarjima qilingan. Ingliz tilida tarjima qilingan



asarlari bir vaqtning o‘zida ham Buyuk Britaniyada, ham AQShda nashr etilgan bo‘lib, bu uning xalqaro adabiy nufuzidan dalolat beradi.

Uning “Tanlangan asarlar” (“Избранные произведения”) to‘plami rus tiliga tarjima qilingan bo‘lib, bu to‘plamda Goytisoloning eng yorqin, tanqidiy va madaniy-falsafiy jihatdan ahamiyatli bo‘lgan hikoyalari, roman parchalari va esselari jamlangan. Asarlar muallifning G‘arb tsivilizatsiyasiga, din va milliy identitetga oid qarashlarini ifoda etadi.

“Bog‘dagi haftalar” (“Los semanas del jardín”) arab tiliga tarjima qilingan bo‘lib, bu asarda Goytisolo Sharq madaniyatiga, tasavvufga, o‘zlikni anglashga oid ramziy va falsafiy tasvirlar orqali yondashadi. Asar struktura va til jihatdan eksperimental xarakterga ega.

“Tenglik belgisi” (“Señas de identidad”) Goytisoloning eng muhim romanlaridan biri hisoblanadi. Bu roman o‘zlikni anglash, tarix va milliy o‘zlik mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, Ispaniyaning fuqarolik urushi va Franko rejimining salbiy oqibatlari fonida yozilgan. U arab tiliga ham tarjima qilingan va postkolonial adabiyot doirasida muhim o‘rin egallaydi.

“Joylarning-joyi” (“El sitio de los sitios”) arab tilida nashr etilgan yana bir asar bo‘lib, bu roman postmodern struktura asosida yozilgan bo‘lib, urushlar, tarixiy xotira va voqelikni aks ettirish usullariga oid murakkab eksperimentallikni namoyon etadi.

“Arxeliya en el vendaval” (“Argelia en el vendaval”) yapon tiliga tarjima qilingan bo‘lib, bu asarda Jazoirdagi mustamlakachilik va milliy ozodlik kurashi fonida G‘arb va Sharq o‘rtasidagi ziddiyatlar va insoniy iztiroblar yoritilgan.

“Bayramlar” (“Fiestas”) nomli asarida Goytisolo bayramlar, rasm-rusumlar va ularning jamiyatdagi mafkuraviy rolini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qiladi. Yengil syujet ostida chuqur ijtimoiy falsafa yashiringan.

“Kuaderno de Sarajevo” (“Cuaderno de Sarajevo”) asarida yozuvchi Bosniya urushi voqealarini kuzatuvchi va harbiy muxbir sifatida yoritadi. Bu asar Goytisoloning jurnalistik va publitsistik mahoratini ifodalaydi. Asarda inson fojiasi, urushning shafqatsizligi va insoniyat taqdiri muhim o‘rinda turadi.

“Urushdan keyingi sayohat” (“Paisajes después de la batalla”) yapon tilida nashr qilingan roman bo‘lib, unda Goytisolo jamiyatdagi siyosiy va madaniy o‘zgarishlarni o‘ziga xos adabiy eksperimentlar orqali tahlil qiladi. Asarda postmodernizmning yorqin ifodasi sifatida tarix, urush va haqiqat tushunchalari betartib, lekin falsafiy mushohadalar bilan berilgan.

Shuningdek, Goytisolo tomonidan yozilgan ilmiy va publitsistik maqolalar — madaniyat, din, siyosat, tsenzura, urush va jamiyat masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, ular “El País”, “Le Monde”, “The New York Times” kabi nufuzli ommaviy axborot vositalarida chop etilgan.

Xuan Goytisolo Gayning ijodi va hayot tarzi haqida bugungi kunda taniqli bo‘lgan yozuvchilar, tanqidchilar va jurnalislari tomonidan ellikdan ortiq maqolalar va yirik tadqiqotlar, monografiyalar yaratilgan. Jumladan: Matilde Albert Robattoning “Xuan Goytisoloning adabiy ijodi” (“La creación literaria de Juan Goytisolo”), Romero Gektorning “Xuan Goytisoloning adabiy evolyutsiyasi” (“La evolución literaria de Juan Goytisolo”), Gipka Gloriyaning “Ispaniya Xuan Goytisoloning uch romanida” (“España en tres novelas de Juan Goytisolo”) kabi bir qancha monografiyalar, shuningdek, Adrian Bridjitning “Xuan Goytisolo Servantes va Borxes bilan dialogda: adabiy esse” (“Juan Goytisolo en diálogo con Cervantes y Borges: un ensayo de lectura”), Adrian Elenaning “Xuan Goytisolo. Xotira” (“Juan Goytisolo. Memoria”) kabi o‘ttizdan ortiq maqolalar ulug‘ adibning hayoti va sermahsul ijodiga bag‘ishlangan.

U G‘arb sivilizatsiyasiga tanqidiy kuzatuvchi sifatida munosabatda bo‘ladi. U Ispaniyadagi “Mamlakat” (“El País”) haftalik gazetasining doimiy muallifi, bundan tashqari, u Checheniston va Bosniya urushlarida bu gazetani harbiy muxbiri sifatida ham faoliyat yuritgan va aynan shu faoliyati orqali u ispan jurnalistikasidagi xalqaro mavqega ega bo‘lgan ispan jurnalislardan biridir.



2007 yil aprel oyidan boshlab Tonxerdagi Servantes instituti kutubxonasi uning nomi bilan atala boshlandi. Kompozitor Xose Mariya Sanches Verdu Goytisoloning “Yaxshi fazilatli qush” (“Las virtudes del pájaro solitario”) romanini “Simurgh sayohati” (“El viaje a Simorgh”) operasiga erkin tarzda moslashtirdi va u ilk bor 2007 yil 4 mayda Madridning qiroolik teatrda namoyish etildi.

Xuan Goytisolo Gay qilgan mehnatlari uchun o‘nlab mukofotlarga sazovor bo‘ladi. U Ispaniya madaniyat vazirligi tomonidan ispan adabiyotiga qo‘sghan hissasi uchun 2008 yil noyabr oyida “Ispan milliy adabiyoti” mukofoti bilan taqdirlanadi va bu mukofotga qo‘shimcha sifatida 40 000 yevro pul mukofoti ham beriladi. Bundan tashqari, u 2012 yilda “Madaniyat, sayyora va barqaror okeanlar” (Tsivilizatsiya raqsi jamg‘armasi) mukofotiga ham sazovor bo‘ladi va shu yilning o‘zida Xuan Goytisolo hikoyanavistlikni butunlay tark etganini ta’kidlab gapirodi: “Bu oxirgi: Gapiroshga hech narsam yo‘q va bu jim bo‘lishimdan yaxshi. Na pul topish uchun yozaman na nashriyotga aytaman”. Garchi uning adabiy esselari va poeziyalari uning debyuti bilan davom etayotgan bo‘lsa-da, u tez orada o‘zining birinchi kitobini namoyish qilishni kutmoqda. Shu tufayli u: “Ular 9 ta na ko‘p va na kam. Qachon men hikoyanavislikni tashlasam, ular mening boshimdan o‘sha she’rlarda qoldirgan laylak chegarasidek o‘tishadi”.

Xuan Goytisolo umrining so‘nggi yillarini ona yurti Ispaniyada emas, balki Marokashning Marrakesh shahrida o‘tkazdi. U adabiy va publisistik faoliyatini yakunlagan bo‘lsa-da, umri oxirigacha jahon voqealarini kuzatib bordi, global muammolar haqida o‘z fikrlarini bildirishdan to‘xtamadi. Uning asarlari bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, o‘quvchini hayotda sodir bo‘layotgan voqealarga befarq bo‘lmaslikka,adolatsizlik va zo‘ravonlikka qarshi fikr bildirishga undaydi. Goytisolo o‘z ijodi orqali insoniyatni ongli, hushyor va faol fuqarolik pozitsiyasiga chorlaydi. Chunki, yozuvchining fikricha, loqaydlik — hayotning yakuniga yozilgan jimgina hukmdir. Xuan Goytisolo 2017 yil 4 iyun kuni, 86 yoshida, Marokashning Marrakesh shahrida vafot etdi. U o‘z istagi bilan shu shaharda dafn etilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Xuan Goytisolo Gay XX asr Ispan adabiyotining eng nufuzli va bahsli vakillaridan biri sifatida adabiy, madaniy va siyosiy sohalarda chuqur iz qoldirdi. Uning ijodi Franko diktaturasi davrining senzura sharoitida shakllanib, postmodernizm va tanqidiy realizm yondashuvlari bilan boyidi. Goytisoloning romanlari, esse va avtobiografik asarlari orqali o‘zlik izlanishlari, madaniyatlararo muloqot, tsenzura va jamiyatdagi ziddiyatlar chuqur badiiy tahlilga tortilgan. U adabiy eksperimentlar orqali Ispaniyaning tarixiy xotirasi va madaniy identitetiga tanqidiy nazar bilan yondashadi. Goytisolo nafaqat ispan, balki jahon adabiy maydonida ham o‘z o‘rnini topgan yozuvchilardan biridir. Uning ijodi bugungi global adabiy jarayonlarda ham dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Goytisolo, J. (1966). Señas de identidad. Barcelona: Seix Barral.
2. Goytisolo, J. (1970). Reivindicación del conde don Julián. Barcelona: Seix Barral.
3. Goytisolo, J. (1985). Coto vedado. Barcelona: Seix Barral.
4. Goytisolo, J. (1986). En los reinos de Taifas. Barcelona: Seix Barral.
5. Goytisolo, J. (1993). Paisajes después de la batalla. Madrid: Alfaguara.
6. Albert Robatto, M. (1997). La creación literaria de Juan Goytisolo. Cádiz: Universidad de Cádiz.
7. Romero, H. (2004). La evolución literaria de Juan Goytisolo. Madrid: Ediciones Cátedra.
8. Gibka, G. (2002). España en tres novelas de Juan Goytisolo. Madrid: Editorial Trotta.
9. Bridge, A. (2011). Juan Goytisolo en diálogo con Cervantes y Borges: un ensayo de lectura. Revista Iberoamericana, (76), 125–140.
10. Elena, A. (2016). Juan Goytisolo. Memoria. Revista de Crítica Literaria, (12), 45–60.

